

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

OCHILBOYEVA IRODA ALISHER QIZI

**ODOB-AXLOQQA DOIR LEKSEMALARNING
KOGNITIV VA LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI
(ingliz va o‘zbek tillari misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2026

UO‘K: 81’1:811.52.133+811.111.

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по филологическим наукам**

**Contents of the abstract of dissertation of Doctor of philosophy (PhD)
in philological sciences**

Ochilboyeva Iroda Alisher qizi

Odob-axloqqa doir leksemalarning kognitiv va lingvokulturologik tahlili
(ingliz va o‘zbek tillari misolida) 3

Очилбоева Ирода Алишер кизи

Когнитивно-лингвокультурологический анализ лексем, относящихся к
этикету (на примере английского и узбекского языков) 27

Ochilboyeva Iroda Alisher kizi

Cognitive and linguocultural analysis of lexemes of etiquette
(on the example of English and Uzbek languages) 55

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works 59

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI
HUZURIDAGI ILMY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 RAQAMLI ILMY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

OCHILBOYEVA IRODA ALISHER QIZI

**ODOB-AXLOQQA DOIR LEKSEMALARNING
KOGNITIV VA LINGVOKULTUROLOGIK TAHLILI
(ingliz va o‘zbek tillari misolida)**

**10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
(filologiya fanlari)**

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida № B2023.2.PhD/Fil3546 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.samdchti.uz) hamda «ZiyoNet» Axborot-ta'lim tarmog'ining (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Oblokulova Mastura Mizrobovna**
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor

Rasmiy opponentlar: **Shamaxmudova Aziza Furkatovna**
filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Jalgasov Nurjan Maratovich
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 raqamli Ilmiy kengashning 2026-yil "14" *mart* soat 10⁰⁰ da majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43-uy. Tel.: (99866) 238-29-37; faks: (998966) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (62799 -raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140117, O'zbekiston, Samarqand shahri, Gagarin ko'chasi, 43- uy. Tel.: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil "25" *fevral* kuni tarqatildi.
(2026-yil "25" *fevral* daqi 8 raqamli reyestr bayonnomasi)



N.Z. Nasrullayeva

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

O'.O'. Qo'ldoshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

D.A. Kiselyov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonning globallashtirish sharoitida turli madaniyatlararo munosabatlarni tadqiq etish, ularning lingvomadaniy va kognitiv mohiyati zaminida til, odob va axloqni o'rgatishga xizmat qilmoqda. Ilmiy tadqiqotlar zaminida tillararo madaniyatlarning umumiy va xos belgilarni aniqlash til, odob va axloq normasi dunyo madaniyatining ajralmas qismi ekanligi, o'zaro aloqalar muhitini anglash orqali xalqlarning madaniy farqlarini va o'xshashliklar ko'lamining dolzarbligini ko'rsatmoqda. Odob va axloqqa doir leksemalarning kognitiv va lingvokulturologik tahlili yordamida chet tilini o'rgatish jarayonini takomillashtirish, til o'z navbatida madaniy – axloq qadriyatlarini ifodalovchi vosita ekanligini ilmiy asoslash zarurati ushbu ishning dolzarbligini belgilab beradi.

Dunyo tilshunosligida odob-axloqqa doir leksemalarni lingvokulturologik nuqtayi nazardan o'rganish jarayonida turli madaniy kontekst va vaziyatlarda nutqning milliy o'ziga xosligini tadqiq etish zarurati kelib chiqadi. Bundan asosiy maqsad, odob-axloq leksemalarining matndagi semantik ma'nosini kontekstual, konseptual, kommunikativ, lingvomadaniy, analitik-sintetik va qiyosiy metodlar orqali tahlil qilishdir. Ma'lum bir til leksik qatlamini tahlil qilish jarayonida “odob-axloq” tushunchasining muloqot tamoyillari, odob-axloq qoidalariga aloqadorlik darajasi va nosamimiy munosabat strategiyalarining funksional-semantik ma'nolari aniqlanadi. Shuningdek, ingliz va o'zbek lisoniy madaniyatga xos qadriyatlarini yoritishda insonlar o'rtasidagi munosabatlarni til vositalari yordamida tahlil qilish zamonaviy tilshunoslikning muhim masalalaridan biri sanaladi.

Yangi O'zbekistonning umumjahon hamjamiyatida integratsiyalashishi uchun xorijiy tillarni o'rganilishi, badiiy adabiyot namunalarini tarjima qilinishida muhim islohotlarni amalga oshirishga e'tibor kuchaymoqda. Badiiy asarlarda keltirilgan odob-axloq leksemalari, shubhasiz, inson shuurini kengaytiradi, o'quvchini ma'lum bir tarixiy davr, muayyan lisoniy hamjamiyatning turmush tarzi, insoniy qadriyatlari va milliy stereotiplari bilan tanishtiradi. Zero “Bizni hamisha o'ylantirib keladigan yana bir muhim masala bu – yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so'z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog'liq”.¹ Odob-axloq leksemalari tilshunoslikning yangi yo'nalishlari prizmasida tahlil qilish, ingliz va o'zbek badiiy matnida ularning o'ziga xosligini ochib berish orqali tilning lisoniy-madaniy xususiyatlarini aniqlash muhim va dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Ushbu dissertatsiya tadqiqoti O'zbekiston Respublikasi Prezidentining, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son “O'zbekiston Respublikasining 2030-yilgacha oliy ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”, 2019-yil 21-oktyabrdagi PF-5850-son “O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora- tadbirlari to'g'risida”, 2022-yil 28- yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida”gi farmonlari, 2018-yil 28-noyabrdagi PQ-4038-son “O'zbekiston Respublikasida milliy madaniyatni yanada rivojlantirish

¹O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Toshkentda bo'lib o'tgan “Ijtimoiy barqarorlikni ta'minlash, muqaddas dinimizning sofliгинi asrash – davr talabi” mavzuidagi anjumandagi nutqi // Uza, 2017-yil, 15-iyun. daryo.uz.

konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”, 2019- yil 14-maydagi PQ-4320-son “Baxshichilik san‘atini yanada rivojlantirish chora tadbirlari to‘g‘risida”, 2025-yil 29-apreldagi PQ-152-son “O‘zbekiston Respublikasida ta‘lim sifati va samaradorligini oshirish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi qarorlari va mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma‘naviy-ma‘rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Ingliz va o‘zbek tillariga oid odob-axloq leksemalarining kognitiv va lingvokulturologik xususiyatlari, matnlarda ularning g‘oyaviy mazmunini shakllantiruvchi lingvistik va ekstralingvistik omillarning namoyon bo‘lish muammolari mahalliy hamda xorijiy olimlar tomonidan tadqiq etilgan. Jumaladan, xorijiy olimlar orasidan mavzuga oid ishlar bilan rus tilshunoslari E.M.Vereshagin, V.Gumboldt, V.I.Karasik, V.G.Kostomarov, T.V.Larina, S.G.Terminasova², xorijiy olimlar B.Brehmer, Sh.Daulay, Ch.F.Ononye, A.Pennikuk, M.Roland, E.Rudolf, R.Susanti³ sohaning rivojiga o‘z hissalarini qo‘shishgan.

O‘z ilmiy izlanishlarini odob-axloq me‘yorlari, milliy-madaniy xususiyatlari va ularning lingvistik tizimdagi o‘rnini o‘rganishga bag‘ishlagan mahalliy olimlardan N.Abdug‘afforova, D.Alimova, G.Hamrakulova, Sh.T.Maxmaraimova,⁴ hamda M.Bekmurodov, Q.N.Nazarov, M.T.Vakhabova⁵,

²Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. – Москва: Наука, 1993. – С. 53.; Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – Москва: Прогресс, 1985. – С. 148.; Карасик В.И. Культурные доминанты в языке // Языковая личность, культурные концепты. – Волгоград, 1996. – С. 3-16.; Ларина Т.В. Категория вежливости и стиль коммуникации: Сопоставление английских и русских лингвокультурных традиций. – Москва, 2012. – С. 189.; Терминасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – Москва: Слова, 2000. – С. 203.; Терминасова С.Г. Клевета как речевой жанр в русскоязычной лингвокультуре: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2012. – С. 18.

³Brehmer B. Courtesy between convention and creativity. A pragma-linguistic analysis of “thank-you” formulas in Russian. – Munich: Verlag Otto Sagner Press, 2009. – P. 130.; Dauly Sh. The importance of expressing politeness: English education students’ perspectives. – Tarling, 2022. - 6(1). – P. 49-68.; Ononye Ch.F. The concept of politeness: First/second order distinction. – London: Oxford University Press. 2020. – P. 38.; Pennycook A. The Cultural Politics of English as an International Language. – Longman, 1994. – P. 190.; Roland M. Politeness and reputation in cultural evolution // Linguistics and Philosophy, 2021. - 44(6). – P. 1213.; Rudolf E. Politeness in German: Concept for the integration of central conversational skills in German as a foreign language lessons. – Regensburg: Fachverband Deutsch als Fremdsprache, 1998. – P. 131.; Susanti R. Study of politeness strategy of speech act caring utterances: Discourse Completion Test (DCT) approach // Utopia and Latin American Praxis, 2020. - 25(1). – P. 282-290.

⁴Abdug‘afforova N. Odob-axloq me‘yorlari va xalq tarbiyasi. – Toshkent: Ma‘naviyat, 2015. – B. 110.; Alimova D. Lexical means of expressing politeness // Scientific-Practical Conference on “Critical Issues of Teaching Oriental Languages”, 2022. - 2(24). – P. 542.; Hamrakulova G. Politeness theory in language // Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal, 2020. - 1(1). – P. 151-157.; Maxmaraimova Sh.T. Lingvokulturologiya. – Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIIU, 2017. – B. 64.

⁵Bekmurodov M. O‘zbek mentaliteti va milliy mafkura // Jamiyat va boshqaruv, 2000. - № 3. – B. 22-23.; Nazarov Q.N. Qadriyatlar tizimi barqarorlik va o‘zgaruvchanlik dialektikasi: Falsafa fan. dokt. diss. – Toshkent, 1996. – B. 31.; Vakhabova M.T. Speech etiquette in the Uzbek language // In Proceeding of International scientific-online conference: Innovation in the Modern Education System, 2022. – P. 33-36.

o‘zbek tilidagi milliy etiket va madaniy qadriyatlarning lingvistik xususiyatlarini o‘rganishga katta hissa qo‘shgan. Sh.M.Xodjayeva⁶ tilshunoslikda diskurs tushunchasining lingvokulturologik xususiyatlarini, N.Z.Normurodova⁷ badiiy diskursda antroposentrizm nazariyasini tahlil qilgan xususan, idiomatik ifodalarning o‘xshash va farqli jihatlarini tahlil qilgan. Mavzuga doir amalga oshirilgan avvalgi tadqiqotlarda kognitiv lingvistika va lingvokulturologiya sohalarining muhim nazariy va amaliy asoslarni yaratgan bo‘lsa-da, o‘zbek va ingliz tillarida odob-axloq leksikasining lingvokulturologik va kognitiv xususiyatlarini tizimli va qiyosiy tahlil qilish, matnlarda ularning falsafiy g‘oyasini yetkazish usullari, milliy-madaniy qadriyatlarni aniqlanishda muloqot vositalari tilshunoslikda hali yetarli darajada o‘rganilmaganligi aniqlandi.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Samarqand davlat chet tillar institutining “Diskursning kognitiv-pragmatik va sotsiolingvistik tadqiqi” mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ingliz va o‘zbek tillarida mavjud odob-axloq leksemalarining lingvokulturologik va kognitiv elementlarini o‘rganish hamda sotsiolingvistik xususiyatlarini ochib berishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

ingliz va o‘zbek tillarida odob-axloq leksemalarining kognitiv va lingvokulturologik shakllanish bosqichlarini ochib berish;

ingliz va o‘zbek tillaridagi odob-axloqqa doir leksik vositalarning kognitiv kategoriyasi va madaniy ma’lumotlarining tilda aks etilishini tahlil qilish;

ingliz va o‘zbek tillaridagi badiiy matnlarda faollashgan odob-axloqqa oid lisoniy birliklarning leksik-semantik mazmunini belgilash hamda ekspressiv va uslubiy vositalarini ko‘rsatib berish;

qiyoslanayotgan tillar lug‘atining paremiologik xususiyatlarini, jumladan, maqollar, idiomalarning ijtimoiy kontekstlarini tahlil qilish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ingliz va o‘zbek tillarining lug‘atlarida, xalq og‘zaki ijodi namunalarida va badiiy adabiyotlarda mavjud bo‘lgan odob-axloqqa doir leksemalar tanlangan.

Tadqiqotning predmetini ingliz va o‘zbek tillaridagi odob-axloq leksemalarining struktur tuzilishi, semantik, kognitiv va lingvomadaniy xususiyatlari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot mavzusini yoritishda qiyosiy-chog‘ishtirma diskurs, etimologik tahlillar hamda lingvokulturologiya metodlari asosida kontrastiv-semantik tahlil va yondoshuvlardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

odob-axloqqa oid *mehmondo‘stlik, hurmat, hayo va insof* kabi leksik

⁶Xodjayeva Sh.M. Diskurs tushunchasi va uning lingvokulturologik talqini // Talqin va tadqiqotlar respublika ilmiy-uslubiy jurnali, 2022. - № 6. – B. 75-79.

⁷Normurodova N.Z. Ingliz badiiy diskursida antroposentrizmning verbal eksplikatsiyasi: Filol. fan. dokt. diss. avtoreferati. – Toshkent, 2020. – B. 58.

birliklarning milliy stereotiplar va turmush tarzi bilan bog‘liq kognitiv kategorial xususiyatlari, ularning badiiy matnda faollashuvini ta‘minlovchi lingvistik va ekstralingvistik omillar ta‘sirida shakllanishi leksik, frazeologik birliklar va kontekstlar misolida asoslangan;

ingliz va o‘zbek tillarida odob-axloq mavzusiga oid *odob, hurmat, axloq va insof* kabi leksemalarning lisoniy-madaniy, kognitiv mazmunining qiyosiy-chog‘ishtirma aspekti doirasida umuminsoniy madaniyatga tayangan izomorf hamda milliy urf-odatlar bilan bog‘liq o‘ziga xos milliy-madaniy jihatlari aniqlangan;

tahlil qilinayotgan tillarda *xushmuomalalik, mehmondo‘stlik va halollik* kabi leksemalarning badiiy matnlarda voqealanishi jarayonida inson xulq-atvorini bayon etishning badiiy uslublari, leksik-stilistik vositalari, odob-axloqqa doir leksemalarning milliylik, madaniyat bilan bog‘liqligi, ularning semantik ma‘nosida ingliz hamda o‘zbek xalqining dunyoqarashi, turmush tarzi, madaniy an‘analari, milliy stereotiplari yoritilishining o‘ziga xos etnomadaniy xususiyatlari ochib berilgan;

chog‘ishtirilayotgan tillarda inson ichki ma‘naviy olami, odobi, tarbiyasi, aql-zakovat darajasining axloqiy fazilatlarini tavsiflovchi *salomlashmoq, uzr so‘ramoq, rahmat aytmoq va izn so‘ramoq* kabi leksik vositalarning pragmatik va lingvomadaniy mazmuni, ularning badiiy matnlarda muayyan zamon va makonga mos keluvchi nutqiy etiket va xulq-atvor modellarining qo‘llanilishi dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida etnik an‘analar doirasidagi “odob” tushunchasining leksik-semantik chegaralarini, jumladan, muloqotda ularning lingvokulturologik va kognitiv xususiyatlarni yoritishga ko‘maklashadigan til birliklarining faollashuvini ta‘minlovchi omillarni aniqlash muhimligi belgilangan;

lingvistik tadqiqotlarda yangi nazariy va amaliy yondashuvlarni aniqlab ingliz va o‘zbek tillari odob-axloq leksemalarining lingvokulturologik va kognitiv tahlilini amalga oshirishda metodologik asos sifatida foydalanish natijasiga erishildi;

insonlar o‘rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish jarayonida aniqlangan ingliz va o‘zbek xalqiga xos odob-axloqqa oid birliklar tadqiqi asosida to‘plangan materiallar bilan lingvokulturologiya, pragmalingvistika hamda kognitiv lingvistika yo‘nalishidagi fanlarni o‘qitishda amaliy jihatdan yordam berdi;

tillararo va madaniyatlararo muloqotning samaradorligini oshirish bo‘yicha ishlab chiqilgan tavsiyalar ingliz va o‘zbek madaniyatlari o‘rtasidagi farqlarni tushunishga yordam beruvchi qo‘llanma yaratish uchun xizmat qildi.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda qo‘llanilgan ilmiy yondashuvlar, metodologik usullar, nazariy ma‘lumotlarning ishonchli manbalardan olingani, amaliy misollar til materiallariga tayanilgani, ishda zamonaviy tadqiq usullaridan foydalanilganligi, respublika, xalqaro miqyosdagi ilmiy-uslubiy, ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to‘plamlari, O‘zbekiston Respublikasi OAK ro‘yxatidagi jurnallar hamda xorijiy ilmiy jurnallarda chop etilgan maqolalar, xulosalar, taklif va tavsiyalarining amaliyotda joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli

tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ingliz va o‘zbek tillarining kognitiv va lingvokulturologik xususiyatlarini solishtiruvchi tahlilga yangi yondashuvni taklif etishi, natijalar tilshunoslik va madaniyatshunoslik sohalarida keng qamrovli tushunchalar va nazariy yondoshuvlar yaratishi, ikki tilli va madaniyatli odamlarning dunyoqarashini yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Tadqiqot natijalari boshqa tilshunoslik, pedagogika va lingvistik tadqiqotlarda ham qo‘llanilishi mumkin.

Dissertatsiyadan olingan natijalar “Madaniyatlararo muloqot va tarjimashunoslik”, “Matnning filologik tahlili”, “Badiiy matn tahlili”, “Zamonaviy lingvistika”, “Lingvistik tahlil metodlari”, “Qiyosiy tadqiqotlar metodologiyasi”, “Matn lingvistikasi”, “Tarjima didaktikasi”, “Tarjimashunoslikning kognitiv asoslari” kabi fanlarni o‘qitishda, seminar va maxsus kurslar tashkil qilishda ahamiyatli manba sifatida qo‘llanilishi, shuningdek, tadqiqot natijalari asosida ikki tilli lug‘at, o‘quv qo‘llanma va darsliklar yaratishda xizmat qilishi mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ingliz va o‘zbek tillarida odob-axloqqa doir leksemalarning madaniy va kognitiv mazmunini qiyosiy-chog‘ishtirma jihatdan tahlil qilish asosida:

odob-axloqqa oid *mehmondo‘stlik, hurmat, hayo va insof* kabi leksik vositalarning milliy stereotiplar bilan bog‘liq kognitiv kategorial xususiyatlari, ularning matnda faollashuvini ta‘minlovchi leksik-semantik omillar lingvistik va ekstralingvistik vositalar ta‘sirida shakllanishini asoslab berishga doir ilmiy-nazariy xulosalardan O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti va Britaniya Kengashi (British Council) hamkorligida amalga oshirilgan “English as a school subject” (1683580) nomli xalqaro ilmiy-tadqiqot loyihasidan foydalanilgan (O‘zbekiston davlat jahon tillari universitetining 2025-yil 30-iyundagi 04-04-1/3143-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ingliz va o‘zbek badiiy matnlarida etnik an‘analar doirasidagi “odob” tushunchasining leksik-semantik chegaralarini, jumladan, muloqotda ularning lingvokulturologik va kognitiv xususiyatlarni yoritishga ko‘maklashadigan til birliklarining faollashuvini ta‘minlovchi omillarni aniqlash muhimligi belgilangan;

ingliz va o‘zbek tillarida odob-axloq doirasida faollashadigan *odob, hurmat, axloq va insof* kabi leksemalarning lisoniy-madaniy, kognitiv mazmunining qiyosiy-chog‘ishtirma aspekti, ularning umuminsoniy madaniyatga tayangan izomorf hamda o‘ziga xos milliy-madaniy jihatlari isbotlanganligi yuzasidan olingan xulosalardan Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining “Assalom, Samarqand” ko‘rsatuvi ssenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyati teleradiokompaniyasining 2025-yil 11-fevral kunidagi 01-07/77-son ma‘lumotnomasi). Natijada, ko‘rsatuv mazmun-mundarijasining ilmiy-ommabopligi ta‘minlangan va ilmiy qarashlar bilan boyitilgan;

tahlil qilinayotgan tillarda *xushmuomalalik, mehmondo‘stlik va halollik* kabi leksemalarning badiiy matnlarda voqealanishi, inson xulq-atvorini matnda bayon etishning badiiy uslublari, leksik-stilistik vositalari, odob-axloqqa doir

leksemalarning milliylik, madaniyat bilan bog'liqligi, ularning semantik ma'nosida ingliz hamda o'zbek xalqining dunyoqarashi, turmush tarzi, madaniy an'analari, milliy stereotiplari yoritilishining o'ziga xos etnomadaniy xususiyatlari ochib berilishiga oid xulosalardan SUZ-800-21GR-381 raqamli Qarshi davlat universiteti tomonidan amalga oshirilgan "Reinforcing English Language competence at Karshi State University" nomli xalqaro grant loyihasidan foydalanilgan (Qarshi davlat universitetining 2025-yil 8-fevraldagi 04/490-son ma'lumotnomasi). Natijada, insonlar o'rtasidagi munosabatlarni tahlil qilish jarayonida aniqlangan ingliz va o'zbek xalqiga xos odob-axloqqa oid birliklar tadqiqi asosida to'plangan materiallar bilan lingvokulturologiya, pragmalingvistika hamda kognitiv lingvistika yo'nalishidagi fanlarni o'qitishda amaliy jihatdan yordam berdi;

chog'ishtirilayotgan tillarda inson ichki ma'naviy olami, odobi, tarbiyasi, aql-zakovat darajasining axloqiy fazilatlarini tavsiflovchi *salomlashmoq, uzr so'ramoq, rahmat aytmoq va izn so'ramoq* kabi leksik vositalarning lingvokognitiv hamda lingvokulturologik mazmuni, ularning badiiy matnlarda muayyan zamon va makonga mos keluvchi xulq-atvor modellarining qo'llanilishini dalillashga doir xulosalardan 2/24-4/7-690-sonli Samarqand davlat chet tillar instituti tomonidan amalga oshirilgan "English Access Microscholarship Program" loyihasi foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2025-yil 31-yanvardagi 306/02-son ma'lumotnomasi). Natijada, milliy madaniyatga oid bilimlar, milliy mentalitetga xos tushunchalar loyiha platformasidagi modullarni mazmunan va mundarijaviy boyitishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari bo'yicha 6 ta ilmiy-amaliy konferensiya, 3 ta xalqaro va 3 ta respublika anjumanlarida ma'ruza qilingan va muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 14 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 6 ta ilmiy tezis va O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 3 ta, xorijiy jurnallarda 5 ta maqola nashr etilgan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiya umumiy hajmi 153 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning maqsadi va vazifalari, obyekti, predmeti, tadqiqot materiali tavsiflangan, O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan, ularning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, aprobatsiya, nashr qilingan ishlar va ishning tuzilishiga oid ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Ingliz va o‘zbek tillarida odob-axloq leksikasining nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida odob-axloq (etiket, moral) tushunchasi insonning ijtimoiy va madaniy hayotidagi muhim hodisalaridan biri sifatida o‘rganilgan. Ushbu tushuncha insonlar o‘rtasidagi munosabatlar, ijtimoiy me‘yorlar va insoniy qadriyatlarni tartibga soluvchi tamoyillar majmuini aks ettiruvchi tushuncha deya ta’riflangan. Odob-axloq tushunchasi nafaqat lingvistik, balki falsafiy, psixologik va sotsiologik manbalarda turli xil yondashuvlar asosida tahlil qilingan. Har bir fan odob-axloq tushunchasini o‘z o‘rganish obyekti va aspektidan kelib chiqqan holda o‘rgangan.

Bobning **“Odob-axloq leksemalarining tillararo nazariy tahlillari”** deb nomlangan birinchi faslida ingliz va o‘zbek tillarida “odob” tushunchasi tahlil qilinib, o‘zbek tilida nutq odobini milliy muloqot madaniyati va mentalitet nuqtai nazaridan o‘rganilib, tilshunoslikda odob-axloq formulalarini tahlil qilish orqali o‘zbek xalqining lingvistik xususiyatlariga munosabat bildirilgan. Odob-axloqqa doir leksemalar madaniy jihatdan tahlil qilinganda bir mamlakat muloqotida ijobiy deb qaralgan tushuncha boshqa mamlakat muloqotida salbiy deb qabul qilinishi mumkinligi ochiqlandi. O‘zbek madaniyati muloqotining asosiy tamoyillari: kattalarni, qarindoshlarni hurmat qilish, suhbatdoshga do‘stona munosabatda bo‘lish, o‘z fe‘l-atvorini, murojaat qiluvchining ezgu-niyatini suhbatdoshga ko‘rsatish zarurati va aksinchadir. Nutq birliklari xalqning madaniy qadriyatlariga singib ketishi orqali o‘zbek xalqi odob-axloq qoidalarida milliy o‘ziga xoslikni saqlay olgan. Shuningdek, “Odob” tushunchasining konseptual doirasi kengdir: ham muloqot qoidalari va me‘yorlarning boyligi, ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri to‘siqlarsiz bir-biri bilan muloqot tushuniladi.

Odob-axloq bu – diqqatlilik, ya’ni muloqot jarayonida o‘zini tutish, u boshqa shaxsga hurmat va xayrixohlikning namoyon bo‘lishi bilan ifodalanadi. Muloqot jarayoni natijalarini hisobga olgan holda, odobli odam boshqalarni hurmat qilishi va xotirjam, vazmin, madaniyatli, do‘stona, xushmuomala, intizomli va tinglash ko‘nikmalarini shakllantirgan bo‘lishi kerak⁸. Ta’limning uchta asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo‘lgan xushmuomalalikning konseptual ma’nosi avlodlar o‘rtasidagi ma’naviy aloqani saqlashda otadan farzandga meros bo‘lib o‘tadigan uchta xislat bu – xushmuomalalik, odob va sadoqatdir⁹. Shuningdek, xushmuomalalik bu – nizodan mumkin qadar yiroqlashishga va ijobiy muloqot muhitini yaratishda verbal va noverbal harakatlar namoyon qilishi bilan shakllanadi. Odoblilik imkon qadar ziddiyatli vaziyatlardan qochish va ijobiy muloqot muhitini yaratishga xizmat qiluvchi og‘zaki va noverbal harakatlardir¹⁰.

Bobning **“Jamiyatda odob-axloq tushunchasining falsafiy, psixologik va sotsiologik voqealanishi”** deb nomlanuvchi ikkinchi faslida insoniyat tarixidagi eng qadimiy falsafiy muammolardan biri bu odob-axloq (etiket, moral)

⁸Shonazarov Sh.B. The influence of ethnocultural factors on the conceptualization and evaluation of rudeness: A cognitive approach to Uzbek and English // Central Asian Journal of Education and Innovation, 2023. - 2(5). – P. 320-328.

⁹Bazapbaev J., Dauletova Q. Etiquette. – Nukus: Education Press, 1994. – P. 62.

¹⁰Kunanbayeva S, Zhylytyrova Z. The development of professional foreign language competence for esp students: Case of Kazakh national agrarian university students // International Journal of Environmental and Science Education, 2016. - 11(14). – P. 7262-7270.

tushunchasidir. Falsafa fanida odob-axloq tushunchasi to'g'ri va noto'g'ri, yaxshilik va yomonlik, axloqiy tanlov, ijtimoiy me'yorlar va qadriyatlar kabi masalalar bilan uzviy bog'lanadi. Sharq va G'arb falsafasi doirasida odob-axloq masalalari tarixiy yillar davomida turlicha yondashuvlar asosida yoritilib kelingan, bu yondashuvlar tahlili ikki madaniyatning mentaliteti, dunyoqarashi, an'ana va qadriyatlarini inobatga olgan holda amalga oshirilgan.

Xususan, Sharq falsafasida Markaziy Osiyo allomalarining asarlarida odob-axloq tushunchasi juda yuksak insoniy qadriyat sifatida talqin etilgan. Jumladan, Abu Nasr Farobiy, Imom G'azzoliy, Ahmad Yassaviy kabi buyuk mutafakkirlar odob-axloq insonning jamiyatda egallab turgan o'rni va vazifalarining ajralmas qismi sifatida baholangan. Masalan: Abu Nasr Farobiyning mashhur "Fozil odamlar shahri"¹¹ asarida odob-axloq tushunchasini davlatning adolatli boshqaruvi va fuqarolar o'rtasidagi o'zaro ijobiy munosabatlarni tashkillashtiruvchi asosiy tamoyil sifatida ko'rsatilgan. Ushbu asar falsafasiga ko'ra, insoniyatning ma'nan yuksakligi darajasini ko'rsatuvchi omil sifatida odob-axloq yoritilgan. Bundan tashqari, Imom G'azzoliy o'zining "Kimiyo saodat" asarida¹² odob-axloqni Islomiy tamoyillar bilan bog'laydi. Ushbu asar falsafasiga ko'ra, odob-axloq tushunchasi insonning ichki va tashqi harakatlarining uyg'unligini ta'minlovchi, inson hayotida yuksak ahamiyat kasb etuvchi tamoyil sifatida ifodalanadi.

G'arb falsafasida odob-axloq tushunchasi asosan "morality" va "ethics" atamaları orqali yoritiladi. Qadimgi yunon falsafasida bu tushuncha dastlab Erikston va Sofokl kabi mutafakkirlar asarlarida aks etgan bo'lib, keyinchalik Aristotel va Immanuel Kantning asarlari G'arb axloq falsafasining rivojiga katta hissa qo'shgan.

Sotsiologik jihatdan odob-axloq tushunchasiga jamiyatdagi ijtimoiy norma va qadriyatlarning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Ingliz tilida "morality" axloqiy me'yorlarni, "ethics" esa kasbiy yoki ijtimoiy normalarni ifodalovchi tushunchalardir. Bu atamalar G'arb madaniyatida insonning shaxsiy erkinligi va jamiyat oldidagi mas'uliyatini yoritishda asosiy ahamiyat kasb etadi.

Bobning so'ngi fasli ***"Kognitiv lingvistikada lingvokulturologik yondashuvlarning madaniy kontseptlari tadqiqi ahamiyati"*** deb nomlanib, kognitiv lingvistikaning asosini tashkil etuvchi tamoyillarning madaniy kontseptlarni o'rganishda kontseptual tahlil ahamiyati e'tiborga loyiqdir.

Lingvomadaniy vositalarning ijtimoiy va madaniy kontekstda qo'llanilishi chog'ishtirma tahlil asosida o'rganish jarayonida asosiy e'tibor paremiologik birliklar va ularning kontseptual sohalariga qaratildi. Paremiologik birliklar maqollar va iboralar orqali madaniy me'yorlarni aniqlash tamoyilini anglatrsa, kontseptual sohalar muayyan madaniy sohalarini ifodalovchi lingvistik birliklarni tahlil qilish tamoyilini nazarda tutadi. Masalan: ikkala millat xalq og'zaki ijodi namunalari hisoblangan "do'stlik" to'g'risidagi maqollar, ushbu kontseptning milliy va universal qirralarini yoritadi. O'zbek tilida do'stlik haqidagi quyidagi maqollar mashhur:

¹¹Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti, 2004. – B. 53.

¹²Imom G'azzoliy. Kimiyo saodat. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" nashriyoti, 2005. – B. 133.

1. *Do 'st so 'zini tashlama, Tashlab boshing qashlama.*

2. *Do 'stsiz boshim – tuzsiz oshim.*¹³

Ingliz tilida ham do'stlikka urg'u berilgan maqollar talaygina:

1. *Old friend and old wine are best.*

2. *Only your real friends tell you when your face is dirty.*¹⁴

Bu maqollarda do'stlikka sodiqlik, uni davomiy bo'lishligi, do'sti bor insonning do'stlariga nisbatan do'stlarcha munosabatda bo'lishi kerakligi, shuningdek do'stlikni asrab-avaylash qiyin ekanligi to'g'risidagi ma'nolarni ko'rish mumkin. "Do'st" tushunchasi o'zbek tilida yaqin do'stlik va samimiy munosabatlarni aks ettiradi, ingliz tilida esa "friendship" tushunchasi kengroq ijtimoiy aloqalar va hamkorlikni anglatishi mumkin.

Lingvokulturologik yondashuvning birinchi va asosiy tamoyili – til va madaniyatning chambarchas bog'liqligini asoslashdir. Uning prinsiplariga ko'ra, tilda mavjud har bir so'z, ibora albatta milliy madaniyatga xos qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar va umumiy dunyoqarash kabi tushunchalarning birini ochiqalaydi. Misol uchun, ingliz tilidagi "social distancing" atamasi COVID-19 pandemiyasidan keyingi madaniy o'zgarishlarni aks ettirgan bo'lsa, o'zbek tilida "yoshni hurmat qilish" qadriyatiga oid atamalar millat tilida azaldan mavjuddir.

Lingvomadaniy yondashuvning ikkinchi tamoyili bu har bir tilga mansub bo'lgan millat madaniyatiga xos konseptual tizimni aniqlashdir. Har bir til o'z konseptual tizimiga ega bo'lib, bu tizim milliy ong, qadriyatlar va an'analarning, millat madaniyatining til vositasi orqali ifodalanishini nazarda tutadi. Til vositasi yordamida shakllangan konseptlar (masalan, "familia" yoki "honor" kabi tushunchalar) millat madaniy tizimining asosiy qismlarini tashkil etadi. Masalan: o'zbek tilidagi "mehr-muhabbat", "hurmat" kabi konseptlar va ingliz tilidagi "love", "respect" tushunchalari milliy madaniyatning ajralmas qismidir. Madaniy kodlar esa: Madaniyatni ifodalovchi kodlar, ya'ni maxsus tushunchalar va ularning ifodalari, lingvokulturologik yondashuv orqali o'rganiladi.

Dissertatsiyaning "**Odob-axloq leksikasining kognitiv tahlili**" deb nomlanuvchi ikkinchi bobida o'zbek va ingliz tillarida ikkala millatning milliy-madaniy merosida odob, hurmat, insof, halollik, adolat, xushmuomalalik va mehmondo'stlik tushunchalari insoniylik va ijtimoiy uyg'unlikning negizi sifatida ahamiyati maqollar misolida tahlil qilingan. Ushbu tushunchalar xalqlarning tarixiy shakllangan qadriyatlarida aks etib, zamonaviy jamiyatda ham o'z dolzarbligini yo'qotmaganligi ta'kidlanadi.

Bobning birinchi fasli "**Kognitiv tilshunoslikda odob-axloq konseptining ifodalanishi**" deb nomlanib, kognitiv tilshunoslik nazariyasi asosida til orqali ifodalanayotgan odob-axloq konseptlarni anglash, ularni madaniyatlararo solishtirish, tarjimada muvofiqlikni ta'minlash va til o'rgatishda samarali metodlarni ishlab chiqish imkoniyati dalillandi. Odob-axloqqa oid konseptlar – inson xatti-harakati, axloqiy baholari, jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlar tizimini belgilovchi asosiy tushunchalardir. Bu quyidagi jadvalda yaqqol ko'rinadi:

¹³G'afurov N. O'zbek maqollari va ularning ma'naviy-ma'rifiy mohiyati. – Toshkent: O'zbekiston, 2005. – B. 74.

¹⁴The Oxford Dictionary of Proverbs. – New York: Oxford University Press, 2008. – P. 103.

Odob-axloqqa oid konseptlarning o'xshash va farqli jihatlari

<i>Konsept</i>	<i>Inglizcha</i>	<i>O'zbekcha</i>	<i>Izoh</i>
<i>Hurmat</i>	Respect	Hurmat	Ingliz tilida "respect" shaxs erkinligini tan olishga asoslanadi, o'zbek tilida esa bu konsept ijtimoiy ierarxiyani hisobga oladi.
<i>Vijdon</i>	Conscience	Vijdon	Har ikkala tilda ham ichki axloqiy mezon sifatida tushuniladi, biroq o'zbek tilida ko'proq diniy-axloqiy asosga ega.
<i>Odob</i>	Politeness/Decency	Odob	O'zbek tilida muomala madaniyati va xulq-atvor, ingliz tilida esa muomala etiketi va diplomatiklikni bildiradi.
<i>Or-nomus</i>	Dignity/Honour	Or-nomus	Ingliz tilidagi "dignity" – ichki qadr-qimmat, o'zbek tilida esa jamiyat oldida yuzini yorug' tutish konsepti.

Bu kabi konseptlar har bir til va madaniyatda alohida kognitiv maydonni shakllantiradi va xalq mentalitetining asosiy ko'rsatkichlaridan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Ingliz tilida "odob-axloq" konseptining markazida "morality" (odob) va "ethics" (axloq) so'zlari turadi.

Shevalarda uchraydigan odobga oid birliklar xalq madaniy ongining tirik namunasi bo'lib, ularning ifodasi xalqning axloqiy qarashlaridan dalolat beradi¹⁵.

O'zbek shevalarida (lahjalarda) odob-axloqqa oid so'zlar adabiy tilga nisbatan o'ziga xos, obrazli, ba'zida esa mahalliy muhitga bog'liq shaklda qo'llaniladi. Bu borada bir qator o'zbek tilshunos olimlar izlanish olib borgan. Jumladan, Jo'rayev o'zbek tilining turli hududlardagi lahjalarga xos leksik birliklarni o'rganib, odob, axloq va madaniyatga oid so'zlar shevada qanday ifodalanishini yoritgan. Uning "O'zbek lahjalari leksikasi" asarida shevalardagi "hayfi bor", "yuzsiz", "uyalmaydi" kabi axloqiy baho bildiruvchi birliklar misol tariqasida keltirilgan.¹⁶

Bu borada bir qator ingliz tilshunos olimlar izlanish olib borgan. Jumladan, Trudgill o'z asarida ingliz shevalariga xos bo'lgan "brazen (uyatsiz)", "well-mannered (odobli)" kabi ko'plab so'z va iboralarni keltirib o'tgan¹⁷. J.Beal, D.Kristal, C.Makafee¹⁸ va boshqa bir qator ingliz tilshunos olimlari ham ingliz tilining barcha asosiy lahja va shevalarida ishlatiladigan leksik birliklarni kognitiv, lingvokulturologik va stilistik jihatdan tahlil qilgan.

Ingliz shevalarida qo'llaniladigan odob-axloqqa oid so'zlar va ularning kognitiv tahlili:

"Brazen" – ("yuzsiz", "or-nomusni bilmaydigan") hurmat, uyat, odob kabi asosiy axloqiy tushunchalarga zid holatni ifodalaydi. Bu so'z ayollarga nisbatan ko'proq ishlatiladi va madaniy jihatdan "uyat" konseptining buzilishi sifatida qabul

¹⁵Tursunov D. O'zbek shevalarining stilistik xususiyatlari. – Toshkent: Universitet nashriyoti, 1997. – B. 44.

¹⁶Jo'rayev N. O'zbek lahjalari leksikasi. – Toshkent: Fan, 1982. – B. 84-87.

¹⁷Trudgill P. Sociolinguistics: An introduction to language and society. – London: Penguin Books, 2000. – P. 87.

¹⁸Beal J. English dialects in the North of England: Phonology and grammar. – Berlin: Mouton de Gruyter, 2004. – P. 132.; Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – P. 276.; Makafee C. Traditional Dialect in the Modern World. – London: Arnold, 1994. – P. 193.

qilinadi: “*She’s a brazen lass – no respect for her elders*” (P.Trudgill. Sociolinguistics. – P. 87).


“**Gallus**” – (“qo‘rqmas”, “haddan oshgan”) ikkiyoqlama bahoga ega: ayrim hollarda jasoratli (positive), ayrim hollarda haddan oshgan, odobsiz (negative). Konseptual xaritada bu so‘z “self-respect” va “lack of humility” o‘rtasida joylashgan: “*He’s a gallus wee laddie – cheeky to the teacher!*” (C.Makafee. Traditional Dialect in the Modern World. – P. 193).

“**Well-mannered**” – (“odobli”, “tarbiyali”) “good upbringing”, “respect for others”, “self-control” kabi konseptual freymlarni ishga soladi. Ijobiy baho beradi va madaniy qadriyat sifatida ko‘riladi: “*He’s a right well-mannered lad for his age*”. (Crystal D. The Cambridge Encyclopedia of the English Language. – P. 276).

Ikkala tilda ham shevalarda ishlatiladigan odob-axloq so‘zlari odatda yorqin hissiy baho (uyatli, beandisha, yuzsiz) beradi, mahalliy ijtimoiy qadriyatlar asosida shakllanadi va konnotativ jihatdan kuchli bo‘ladi, ya‘ni ijobiy yoki salbiy his tuyg‘u bilan boyitilgan.

Bobning ikkinchi fasli “*Ingliz va o‘zbek tillarida odob-axloq konseptlarni aniqlash va ularning konseptual xaritalarini yaratish*” deb nomlanib, odob, hurmat va insof kabi tushunchalar har qanday jamiyatdagi kabi o‘zbek va ingliz jamiyatlarining axloqiy asoslarini tashkil etishi, shaxslararo munosabatlarda ularning konseptual xaritasi muloqot negizini tashkil etishi asoslandi. Konseptual xaritalar ta‘lim, psixologiya, axborot tizimlari, muhandislik va ko‘plab sohalarda qo‘llaniladi. Bu xarita bilimni tizimlashtirish, fikrlarni tartibga solish va tushunchalarni mukammallashtirish hamda muammoli vaziyatni chuqur tahlil qilib, uning yechimini rejalashtirish yo‘li bilan tahlil qiladi. Yangi tushunchalarni mavjud bilim bazasiga qo‘shib, yangicha g‘oyalarni ishlab chiqib, yangi bilim yaratishda yordam beradi.

Konseptual xarita yaratilishi bir necha bosqichda amalga oshiriladi. Ular quyidagilar:



2-jadval. Tushunchalar va ularning bog‘liqligi

Ushbu jadvalda “odob” konsepti markazda turadi, chunki bu inson axloqiy xulqining umumiy mezon sifatida qaraladi. Chap tomonda “hurmat” bilan bog‘liq birliklar joylashgan, ularning barchasi insonlar o‘rtasidagi ijtimoiy muomala asosida shakllanadi. O‘ng tomonda esa “tarbiya” (upbringing) konsepti joylashgan bo‘lib, bu shaxsiy xatti-harakat, o‘zini nazorat qilish, axloqiy qadriyatlar bilan bog‘liq. Pastki qismda esa ushbu qadriyatlarga zid bo‘lgan holatlar joylashgan – bu so‘zlar ijtimoiy baholovchi xususiyatga ega.

Konseptual xaritalar murakkab tizimlarni tushunishda, o‘zaro bog‘liqlikni ko‘rsatishda va bilimni vizual tarzda tartibga solishda samarali vositadir. Bu metod ta‘lim va ilmiy tahlilning ajralmas qismi bo‘lib, u orqali konseptual bilimni chuqur va tizimli tushunish imkoniyatini yaratadi.

Ma‘lumki, ingliz jamiyatida ham odob-axloq qoidalari ko‘p yillik tarixiy jarayonning mahsuli bo‘lib, ular jamiyatning madaniy va axloqiy qadriyatlarini izohlaydi¹⁹. Rasmiy uchrashuvlarda kiyinish madaniyati, o‘zini tutish qoidalari va nutqdagi muloyimlik professional imidjni shakllantiradi va muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi²⁰.

Ko‘plab o‘zbek va ingliz xalq maqollarida odob tushunchasiga oid misollar mavjud. O‘zbek xalq maqollari:

“*Odob – inson ko‘zgusi*” - insonning shaxsiy fazilatlari orasida eng qadrli va afzali sifatida uning odobi ifodalangan (M.Xudoyberganov. O‘zbek xalq maqollari. – B. 42). “*Odobli bola oila sevimli*” – oila bu jamiyatdagi eng sara va qadrli fazilatlar manbai sifatida tan olingan (D.Tursunov. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida tarbiya masalalari. – B. 61).

Ingliz xalq maqollari:

“*Manners make the man*” (Odob insonni yaratadi) – Bu maqol zaminida odob-axloq – insonning haqiqiy qadriyatlarini ko‘rsatishdagi muhim rolini ta‘kidlaydi (WW.Horman. *Vulgaria*). “*A good manner is the best ornament*” (Odob eng yaxshi bezakdir) – Odob-axloq va xushmuomalalik insonni tashqi ko‘rinishdan ko‘ra qadrliroq (Routledge. *Proverbs and their lessons*). Shuningdek, Brown va Levinson tomonidan ishlab chiqilgan Politeness Theory (Odob-nazokat nazariyasi)da “respect” tushunchasi negative politeness (shaxsiy hudud va ixtiyorni hurmat qilish) orqali yuzaga chiqadi. Bunda til vositalari orqali boshqani noqulay holatga solmaslik, tan olish va masofa saqlash hurmat ifodasidir²¹.

O‘zbek oilalarida hurmat qadriyati farzandga bolalikdan urf-odatlar, diniy ta‘limotlar va ota-onaning shaxsiy namunalari orqali singdiriladi. Ko‘pincha bu tushuncha e‘tiqod va milliy an‘analar bilan bog‘liq. Ingliz madaniyatida esa hurmat ko‘proq maktab, jamiyat va qonunlar orqali shakllanadi. Har bir fuqaroning huquqlarini tan olish va buzmaslik tamoyili asosiy mezon hisoblanadi. “Hurmat” tushunchasining sinonimlari “ehtimom”, “izzat”, “tazim”, “qadr”, “andisha” kabi so‘zlarni tashkil etsa, uning antonimlari “hurmatsezlik”, “beadablik”, “andishasizlik” va boshqalar. Ingliz tilida hurmat tushunchasini “respect” so‘zi

¹⁹Fox K. *Watching the English: The Hidden Rules of English Behaviour*. – London: Hodder & Stoughton, 2004. – P. 71.

²⁰Thomas J. *Meaning in Interaction: An Introduction to Pragmatics*. – London: Longman, 1995. – P.139.

²¹Brown P., Levinson S. *Politeness: Some Universals in Language Usage*. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – P. 333.

ifodalaydi. Uning sinonimlari “esteem”, “honor”, “regard”, “deference”, “reverence” kabi soʻzlar va ushbu soʻzning antonimlari “disrespect”, “contempt”, “insult”, “disregard”, “scorn” va boshqalar.

Shuningdek, “insof” tushunchasining jamiyatda adolatni qaror toptirishda va ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi roli uning ijtimoiy ahamiyatini belgilaydi²².

Ingliz tilshunos olimi B. Villiams “truthfulness” (insof) ni jamiyatdagi ishonch va axloqiy barqarorlikning asosi deb baholab, ushbu tushunchaning halollik va vijdoniy jihatlari bilan bevosita bogʻliqligini taʼkidlaydi²³.

S. Blakburning fikricha, axloqiy xulqning asosi – bu shaxsning oʻzini tahlil qilishi, vijdoni bilan yuzma-yuz turishi va boshqalarga zarar yetkazmaslik tamoyiliga sodiqligidir. Bu nuqtayi nazar insof konsepti bilan uygʻunlashadi²⁴.

Demak, ingliz madaniyatida ish jarayonida insof prinsiplarga rioya qilish va halol boʻlishni talab qilish ortida shaxslararo ishonchlilikni oshirish maqsadi yotadi.

Oʻzbek madaniyatida “insof” tushunchasi koʻproq axloqiy va diniy konnotatsiyalarga ega boʻlsa, ingliz tilidagi “fairness” yoki “justice” tushunchalari huquqiy va etik kontekstda qoʻllanadi. Har ikki tilda bu tushuncha odamlararo tenglik, hurmat va halollikni targʻib qiladi, biroq ifoda uslubi va asosiy qadriyatlar turlicha shakllangan.

Oʻzbek xalq ogʻzaki ijodida juda koʻplab insof atamasiga doir maqollar mavjud boʻlib, xalqning kundalik hayoti, boy hayotiy tajribasi oʻlaroq vujudga kelgan va asrlar davomida tilda saqlanib qolgan. Oʻzbek xalq maqollari va iboralarida insof, adolat va halollik hayotning asosiy tamoyillari sifatida qadrlanadi. Misollar:

“Savdogarning insofi – mijozning ishonchi” – Qishloq xoʻjaligidagi adolat tamoyillari: savdogar va mijoz oʻrtasidagi halollikning muhimligi haqida (Oʻzbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi. Oʻzbek xalq maqollari).

“Insof yarim din” – Insonning dindorligi va axloqi insof orqali namoyon boʻlishini taʼkidlaydi (N.Gʻafurov. Oʻzbek tilida axloqiy qadriyatlar konseptlari).

“Insofli odam el ichida ulugʻ” – Insofli boʻlgan kishi doimo hurmatga sazovor boʻlishi haqida (D.Tursunov. Oʻzbek shevalarining stilistik xususiyatlari).

Insof (fairness, justice or conscience) mavzusi ingliz xalq maqollarida va iboralarida adolat, haqiqat va muvozanatni ifodalab:

“Fairness is the foundation of harmony” (Insof – uygʻunlikning poydevori) – Insof va adolat jamiyatda tinchlikni taʼminlashning asosi ekanligini taʼkidlaydi (Oxford Dictionary of English Proverbs). *“What is fair is not always popular, and what is popular is not always fair”* (Adolatli boʻlgan narsa har doim ham mashhur boʻlmaydi va mashhur narsa har doim adolatli boʻlmaydi) – Adolatning baʼzida qiyin boʻlishi va tanqid qilingan boʻlsa-da, lekin uning toʻgʻri yoʻl ekanligini taʼkidlaydi (N.Kurland. Ethics in management). *“An eye for an eye, a tooth for a tooth”* (Koʻzga koʻz, tishga tish) – Adolatning muvozanatli va toʻgʻri boʻlishini,

²²Sharipov M. Oʻzbek axloqiy merosida insof va adolat tushunchalari // Oʻzbekiston Fanlar Akademiyasi Axborotnomasi, 2015. - 2(43). – B. 27-35.

²³Williams B. Truth and Truthfulness: An Essay in Genealogy. – Princeton: Princeton University Press, 2002. – P. 67.

²⁴Blackburn S. Being Good: A Short Introduction to Ethics. – Oxford: Oxford University Press, 2001. – P. 91.

insonlarga faqat ular qilgan harakatlarga javob berishni anglatadi (S.Blakburn. Being Good). *“All is fair in love and war”* (Sevgi va urushda hamma narsa adolatli) – Ba’zida sevgi yoki janjallarda o’zaro raqobat va kurashning adolatsiz bo’lishi mumkinligini ta’kidlaydi (W.Mieder. Proverbs).

“Halollik” o’zbek tilidagi axloqiy qadriyatlar konseptual tizimida “insof”, “vijdon”, “tozalik”, “sadoqat” kabi boshqa qadriyatlar bilan semantik va kognitiv jihatdan bog’langan²⁵. Ingliz madaniyatida halollik (honesty) tushunchasi odob-axloqning eng muhim unsurlaridan biri bo’lib, shaxsiy va ijtimoiy munosabatlarda ishonch, hurmat va adolatni ta’minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu tushuncha odamlarning o’z so’zlari va harakatlarida rostgo’ylik, ochiqlik va vijdonlilikni saqlashini talab qiladi. Adolat – odilona ish tutish, odillik. [O’zbek tilining izohli lug’ati 1-jild: 41] O’zbek tilida ushbu so’zning sinonimlari “haqqoniylik”, “to’g’rilik”, “halollik”, “insof”, “vijdonlilik”, “tenglik” kabi so’zlar bo’lsa, uning antonimlari “zulm”, “nohaqlik”, “adolatsizlik”, “tengsizlik”, “to’ravonlik”, “qonunsizlik” kabi so’zlar hisoblanadi.

Bobning so’ngi fasli ***“Ingliz va o’zbek tillarida odob-axloq konseptlarining lingvistik ifodasiga metaforik va metonimik iboralar tahlili”*** deb nomlanib, odob-axloq konseptlari tilning lingvistik jihatlaridan tashqari, kognitiv va madaniy unsurlarini ham ifodalaydi. Metafora va metonimiya usullari odob-axloq konseptlarining mantiqiy va emotsional mazmunini tushuntirishda lingvistik vositalar sifatida yoritildi. Odob-axloq tushunchalari har bir jamiyatning axloqiy asoslarini tashkil etadi. Ular milliy mentalitet va madaniyatdan kelib chiqqan holda ifodalanadi²⁶. O’zbek tilida odob-axloq konseptlarining lingvistik ifodasi metaforik yondashuv orqali iboralarni tahlil qilish – bu tilda shakllangan ma’naviy qadriyatlar va ular bilan bog’liq til vositalarini o’rganishni nazarda tutadi²⁷. Bu masala odob-axloq tushunchalarining tilda qanday aks etganini hamda ular orqali jamiyatning madaniy va ma’naviy me’yorlarini tahlil qilish imkonini beradi.

Metaforalar tilda nafaqat estetik, balki ma’rifiy vazifani ham bajaradi. Masalan:

Odob va axloqni yo’l orqali tushuntirish:

“Odob yo’lida yurish” – to’g’ri hayot tarzini anglatuvchi metafora.

“O’z yo’lidan adashmaslik” – insonning odobli va insofli yo’l tutishini tasvirlaydi.

“Adolat yo’lidan chetga chiqmaslik” – haqiqat va to’g’rilik yo’lidan yurish.

Bundan tashqari, semantik tahlil yordamida metaforalarning asl va ko’chma ma’nolarini ochishni nazarda tutsa, pragmatik tahlil ushbu iboralarning kundalik hayotda muloqot jarayonida qo’llanilishini o’rganadi. Madaniy kodlar o’zbek tilidagi odob-axloq iboralari ko’pincha xalqning madaniy me’rosini, tarixini va an’analarini aks ettiradi:

“Ko’ngli pok” iborasi insonning niyatining tozaligini ifodalasa, *“Yuzidan nur yog’ilsin”* iborasi esa insonning nurli, ijobiy kayfiyatini bildiradi. Ingliz tilidagi *“A*

²⁵G’afurov N. O’zbek tilida axloqiy qadriyatlar konseptlari. – Toshkent: O’zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 2012. – B. 38.

²⁶Lakoff G., Johnson M. Metaphors We Live By. University of Chicago Press, 1980. – P. 25-30.

²⁷Khasanova Z. Axloqiy qadriyatlarining lingvokulturologik tahlili: Fil. fan. bo’yicha fals. dokt. diss. – Toshkent, 2020. – B. 60-65.

man of his word” iborasi soʻzida turadigan ishonchli insonni bildirsa, “*Clean hands*” esa halollik va poklikni ifodalaydi.

Metaforalar tilni boyitib, abstrakt odobiy tushunchalarni konkret, aniq koʻrinishga keltiradi²⁸. Ularning lingvistik tahlili semantik, pragmatik tahlillar va madaniy kodlarni oʻz ichiga oladi.

Pragmatik tahlil yordamida metaforik iboralarning kommunikativ jarayonlardagi roli va ularning maʼnosi kontekstga qarab oʻzgarishini nazarda tutadi. Masalan, “*crossing the line*” (axloqiy chegaralarni buzish) iborasi qoidani buzishni bildiradi, lekin uning mazmuni maʼnaviy yoki ijtimoiy meʼyorlarga bogʻliq. Biror kimni “*two-faced*” (ikki yuzlamachi) deb atash ijtimoiy munosabatlardagi yolgʻon va ikkiyuzlamachilikni nazarda tutadi.

Ingliz tilida odob va axloq tushunchalarini oʻxshatishlar, obrazlar orqali tushuntirish:

“*Birds of a feather flock together*” – bir xil qiziqish va fazilatlarga ega boʻlgan odamlar birga boʻlishini anglatadi (Cambridge Dictionary).

“*Friendship is like money, easier made than kept*” – doʻstlikni oʻrnatish oson, lekin uni saqlash va mustahkamlash ancha qiyin boʻladi (Cambridge Dictionary).

“*A fair-weather friend*” – yaxshi ob-havo doʻsti, faqat yaxshi paytlarda yordam beradigan doʻst (Collins Dictionary).

Oʻzbek tilida odob-axloq kontseptlarini ifodalashda metonimiya muhim rol oʻynaydi. Metonimiya orqali axloqiy tushunchalar tilda aniqroq, qisqaroq va chuqur maʼno bilan aks ettiriladi. T.Mirzayev oʻzbek xalq maqollarida metonimiyaviy ifodalar orqali axloqiy qadriyatlar tasvirlanishini taʼkidlaydi. Masalan, “Oyoq bosmay oʻrtoq topilmas” maqolida “oyoq bosish” harakati orqali yaqinlik va ijtimoiy munosabatlar ifodalanadi²⁹. N. Mahmudov va M. Joʻrayevlar oʻz izlanishlarida oʻzbek tilida tana aʼzolari, kiyim-kechak, rang kabilar bilan bogʻliq metonimiyalar orqali axloqiy tushunchalar ifodalanishini koʻrsatadi. Masalan, “yuzsiz” iborasi odobsiz, uyatsiz maʼnosini anglatadi³⁰. Semantik jihatdan metonimik iboralarning leksik va semantik maʼnosi tahlil qilinsa, pragmatik jihat ularning maʼnosi muloqot jarayonida, vaziyat va kontekstga qarab ochib beradi³¹. Masalan: “*quloqdan tutmoq*” iborasi kontekstga qarab axloqiy nazorat yoki tartib-intizomni anglatishi mumkin.

Ingliz tilida metonimik yondashuv orqali odob-axloq konseptlari turli tushunchalar bilan qiyoslangan holda ifodalanadi. Metonimiya mavhum tushunchalarni aniq yoki yaqin bogʻliq narsalar orqali ifodalashni oʻz ichiga oladi. Ingliz tilida odob-axloqiy kontseptlar koʻpincha metonimiyadan foydalanib, mavhum qadriyatlarni oson tushunarli va hayotga yaqin qiladi. Masalan:

Axloqiylik va axloqsizlik tozaligicha yoki ifloslanish bilan bogʻliq obrazlar orqali tasvirlanib, poklik va ifloslanish orqali tasvirlanadi:

“*A clean slate*” – halollikni anglatadi.

“*White gloves*” – begʻuborlik yoki tozalik.

“*Dirty hands*” – aybdorlikni koʻrsatadi.

²⁸Гальперин И.Р. Лексико-фразеологические стилистические средства. – Москва, 2004. – С. 101.

²⁹Mirzayev T. Oʻzbek xalq ogʻzaki poetik ijodi. – Toshkent, 1990. – B.75.

³⁰Mahmudov N., Joʻrayev M. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2005. – B. 34.

³¹Yoʻldoshev M., Muhamedova S., Saparniyazova M. Matn lingvistikasi. – Toshkent: Ishonchli hamkor, 2021. – B. 162.

Ingliz va o‘zbek tillarida odob-axloqqa oid konseptlar til vositasida ifodalanayotganda, metafora va metonimiya asosiy kognitiv mexanizmlar sifatida xizmat qiladi. Har ikkala tilda ham bu iboralar inson tafakkurining madaniy va axloqiy tajribasiga tayangan holda shakllanadi. Ular abstrakt tushunchalarni konkret obrazlar orqali ifodalash orqali axloqiy qadriyatlarni tushunarli va obrazli qiladi.

Shuningdek, ingliz tili iboralari ko‘pincha yozma va rasmiy uslubda, individual nutqda qo‘llansa, o‘zbek tilidagi iboralar ko‘proq ommaviy og‘zaki nutqda, maqollarda, hikmatli so‘zlarda uchraydi. O‘zbekcha iboralarda emotsional baholovchanlik kuchli bo‘lib, ular ko‘proq tarbiyaviy va axloqiy maqsadlarda ishlatiladi.

Dissertatsiyaning **“Odob-axloqqa doir til birliklarning lingvokulturologik xususiyatlari”** deb nomlangan uchinchi bobda odob-axloq kategoriyalari ma‘lum bir tilda mavjud bo‘lgan ijtimoiy va madaniy qadriyatlarni aks ettiruvchi so‘z va ifodalar tizimini tashkil etish bilan birga, millatning axloqiy, etik, ijtimoiy va madaniy qoidalarini ifodalanishi tadqiq etilgan. Ushbu kategoriyalar turli tillarda turlicha o‘ziga xos xususiyatlarga ega va turlicha ma‘no bo‘yoqdorligiga ega.

Bobning birinchi fasli **“Ingliz va o‘zbek tillarida odob-axloq kategoriyalarining lingvomadaniy tadqiqoti”** deb nomlanib, odob-axloq kategoriyalarining tadqiqi, asosan, axloqiy, diniy va madaniy qadriyatlar bilan bog‘liq bo‘lgan so‘zlarning lug‘aviy va semantik tahlili orqali olib borilgan.

Mashhur o‘zbek tilshunos olimlari A.N.Zaynalov va D.S.Nesterova ta’kidlashicha, til va madaniyat chambarchas bog‘liq bo‘lgan tushuncha hisoblanib, ularni tadqiq etish jarayoni bevosita o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish orqali amalga oshirish lozim. Hurmat, izzat, vijdon, adolat, saxovat, mehmondo‘stlik kabi tushunchalar o‘zbek tilidagi odob-axloq konseptlarining asosiy elementlari hisoblanib, ular o‘zbek millatining milliy va tarixiy an‘analariga, oilaviy va ijtimoiy ijobiy fazilatlarga asoslanadi³². Milliy madaniyatning muloqot vositalariga ta’siri muhimligi ta’kidlagan qarashlar T.Ibragimov tadqiqotlarining asosi hisoblanadi. Unda “kuzatib qo‘yish”, “kutib olish”, “oling-oling deb turish”, “to‘rdan o‘tqazish”, “omin aytish”, “xush kelibsiz” kabi iboralar o‘zbek madaniyatida mehmondo‘stlik va hurmatni ifodasi sifatida talqin qilingan³³.

Ingliz tilidagi boshqa ko‘plab ijtimoiy tushunchalar qatorida odob-axloq tushunchalari ham asrlar osha madaniy va ijtimoiy omillar ta’sirida shakllangan bo‘lib, ular asosan, ijtimoiy me’yorlar va milliy urf-odatlar bilan bog‘liq.

Asrlar davomida odob-axloq tushunchalarining ingliz millati kundalik hayotini tashkil etish va nazorat qilishda muhim ahamiyat kasb etgan va ular ko‘pincha “manners”, “politeness”, “courtesy”, “respect”, “morality” kabi tushunchalar mazmuni bilan bog‘liq bo‘lgan. Ushbu konseptlar semantik jihatdan ko‘plab ifoda mazmunlarini anglatadi. Misol uchun: “Politeness” konsepti ingliz tilida odobning asosiy mezonlaridan biri sifatida qaraladi. “Politeness” so‘zi,

³²Zaynalov A.N., Nesterova D.S. Til va madaniyat: o‘zaro aloqadorlik masalalari. – Toshkent: Fan, 2003. – B. 15-18.

³³Ibragimov T. O‘zbek tilidagi madaniyatshunoslik masalalari. – Toshkent: Akademnashr, 2002. – B. 25.

xushmuomalalik va boshqalar bilan ijtimoiy munosabatlarni tartibga solishning o'ziga xos usulidir. "Respect" tushunchasi, odobni ifodalovchi muhim so'zlardan biridir. Ushbu so'z, faqat ijtimoiy tizimda emas, balki oilaviy, diniy va professional munosabatlarda ham keng qo'llaniladi.

Ingliz tilida odob va axloqni ifodalovchi ko'plab iboralar mavjud, masalan: "Please", "Thank you", "Excuse me", "Sorry", "Bless you", "Good luck" – kabi so'zlar jamiyatda odobni ifodalashda muhim rol o'ynaydi. (E.Sapir. "Language: An Introduction to the Study of Speech". – P. 54).

Minnatdorchilik bildirish "*tashakkur aytish*", "*minnatdor bo'lish*", "*qulluq qilish*" leksemalari yordamida ham anglatiladi: *Kumush mudragan kuyi Zaynabga tashakkur aytib, to'rdagi burchakka o'tirib oldi. (A.Qodiriy. O'tkan kunlar); Tojixon kasaldan tuzalgan, lekin hali ishga chiqmagan ekan. Saidaning kelganiga juda xursand bo'ldi, minnatdorchilik bildirgani so'z, o'tqazgani joy topa olmay qoldi. (Qaxxor. Sinchalak. – B. 131); Saida penisillin nimaga kerakligini tushunmasa ham qulluq qildi. (A.Qaxxor. Sinchalak. – B. 93). "Qulluq" so'zi ijobiy ma'nodagi so'z bo'lib, orttirilgan yangi narsaga nisbatan "buyursin" ma'nosida ham ishlatiladi: – Mashinani olib keldim. – Shunaqami? Qulliq bo'lsin! Qani? (A.Qaxxor. Sinchalak. – B. 147); Ot qulliq bo'lsin, ukam. O'zi ham otmisan, ot ekanda. (Said Ahmad. Ufq. Qirq besh kun. – B. 173).*

Minnatdorchilikka javoban "*marhamat*" leksemasi ishlatiladi. Ushbu so'z saxovatli kishilarga nisbatan ham aytiladi: *Marhamat kiring! - dedi Nosirov va Saida bilan gapni naridan-beri tugatdi (A.Qaxxor. Sinchalak. – B. 11); Yoshlik qilibsiz, marhamatli podshohim haqini unutibsiz (A.Qodiriy. Mehrobdan chayon).*

Ingliz madaniyatida ham minnatdorchilik bildirish ham kundalik muloqotning odob-axloq leksikasi sirasiga kiradi: *No, but thank you just the same, darling. That would crowd us so (Margaret Mitchell. Gone with wind. – P. 1397).* Biror yaxshik uchun qarzdorlik hissini anglatadi: *How kind you are and how clever! How can I ever thank you enough?(Margaret Mitchell. Gone with wind. – P. 1549).*

Bu axloqiy qadriyat ingliz madaniyatida o'ta muhim deb qaraladi, chunki to'g'ridan-to'g'ri va ochiq bo'lish ko'p hollarda yaxshilikka olib keladi. Ingliz tilidagi odob-axloq kategoriyalari XIX-XX asrlarda shakllangan bo'lib, dastlabki bosqichlarda ular ijtimoiy axloqiy g'oyalar va etika prinsiplarini ifodalaydigan falsafiy va ijtimoiy tadqiqotlarni o'z ichiga olgan. Bunday tadqiqotlar ingliz tilidagi so'zlarning leksik va semantik tomondan o'zgaruvchanligini millat ijtimoiy hayotida rivojlanayotgan axloqiy konseptlar ifodasi orqali ko'rsatadi.

Bobning ikkinchi fasli "***Ingliz va o'zbek tillarida odob-axloq birikmalaridagi madaniy me'yorlar va stereotiplar xususiyati***" deb nomlanib, til va madaniyat konsepti jamiyatning ajralmas bo'lagi sifatida lingvistik, sotsiolingvistik, antropologik va etimologik tahlillar yordamida o'rganildi. Til aynan muloqot qilish, fikr almashish vositasi sifatida jamiyatdagi asosiy vazifani, ya'ni axborotni uzatish, saqlash va almashishda faollashadi. Madaniyat esa undan ko'ra kengroq tushunchani anglatib, jamiyatning tarixiy davrlardan buyon saqlanib va ardoqlanib kelayotgan xalqning boy ma'naviy va moddiy me'rosini, milliy an'analari va millatning o'zigagina xos qadriyatlarini o'z zaminida avloddan avlodga uzatadi.

Stereotiplar ko‘pincha milliy xususiyatlarni yoritadi. Stereotip – bu ma’lum bir guruh yoki millat vakillariga nisbatan shakllangan, odatda soddalashtirilgan va umumlashtirilgan tasavvurlar yig‘indisidir³⁴. Stereotiplar milliy xarakter, madaniyat va axloqiy qadriyatlarni aks ettirishda muhim rol o‘ynaydi, biroq ular ko‘pincha haddan tashqari umumlashtirilgan yoki noto‘g‘ri tasavvurlarni ham shakllantirishi mumkin³⁵. O‘zbek tilida oilaviy qadriyatlar va kattalarga hurmat kabi stereotiplar ko‘p uchrasa, ingliz tilida esa muvaffaqiyat va erkinlik bilan bog‘liq stereotiplar keng tarqalgan. Misollar: o‘zbekcha “*Mehmon kelsa – tandir qiziydi*” maqoli mehmondo‘stlik madaniyatini ifodalaydi, mehmon kelgach albatta unga mulozamat ko‘rsatilishining ahamiyatini ta’riflaydi. Inglizcha “*There is no such thing as a free lunch*” maqoli esa iqtisodiy o‘ziga qaramlik stereotipini ko‘rsatadi.

O‘zbek tilida hurmat kategoriyasi kommunikativ vaziyatning rasmiy yoki norasmiyligiga va suhbatdoshga bo‘lgan munosabatga qarab tanlanadigan “sen” va “siz” olmoshlari bilan ifodalanadi. “Sen” olmoshining tanish muhitga xos bo‘lgan qo‘llanishi so‘zlashuv nutqida kundalik neytral bo‘yoqqa ega. “Siz” olmoshi esa rag‘batlantiruvchi gaplarda qo‘llanadi va hurmat belgisini anglatadi. Lingvistik va madaniy tahlilga ko‘ra ikkinchi shakl kichikdan kattalarga murojaat qilish uchun, shuningdek, rasmiy yig‘ilishlarda ishlatiladi. Masalan: *Asrorqul xatni ovoz chiqarib o‘qidi: “Hurmatli Asrorqul ota! ... Ertaga kechqurun mehmonlar bilan birlikda sizning xizmatimizda bo‘lamiz”.* (A.Qaxxor. *Asror bobo*); *Buning ustiga nima bo‘lib, Qakandarov kirib qoldi. Qiz uning hurmatiga o‘rnidan turdi ...* (A.Qaxxor. *Sinchalak*. – B. 108).

Bundan tashqari, yoshi kattalar tomonidan yoshlarga nisbatan hurmat-izzat ko‘rsatilishi eng oliy rag‘bat hisoblanib, o‘zbek madaniyatida bu holat yoshlarga nisbatan tan olinish bo‘lsa, yoshlar tomonidan tantilik sifatida qaraladi: *Azizxon umrida bunaqa izzat-hurmat ko‘rmagan* (Said Ahmad. *Ufq. Qirq besh kun*. – B. 169); *Nosirov Saidani uzoqdan ko‘rishi bilan o‘rnidan turdi, unga tomon bir necha qadam bosdi, hurmat bilan so‘rashgach, chetlanib yo‘l berdi. Bu hol biroz erish tuyilgan bo‘lsa ham, Saida buni sezdirmaslikka tirishib, o‘zini shunday izzat-hurmatga sazovor bir kishiday tutishga harakat qilar edi* (A.Qaxxor. *Sinchalak*. – B. 54).

Ingliz madaniyatida ham katta yoshdagilarga, ota-ona va qarindoshlarga, yuqori lavozimdagi kishilarga hurmat ko‘rsatish ularning jamiyatdagi o‘rnini tan olish va minnatdorlik bildirishning belgisi hisoblanadi. Ingliz jamiyatida ijtimoiy status ham muhim sanaladi: *Scarlett wanted to respect and adore her mother like an idol and to rumple her hair and tease her too* (Margaret Mitchell. *Gone with wind*. – P. 173). *Betrayed, too, by words and catch phrases, prejudices and hatreds coming from the mouths of those highly placed, those men whom we respected and revered* (Margaret Mitchell. *Gone with wind*. – P. 404).

Jamiyatda kishilarga hurmat ko‘rsatish uning ma’naviy tarbiyasidan dalolat beradi. Ingliz madaniyatida kishilarga hurmat munosabatida bo‘lish avvalambor,

³⁴Lippmann W. Public Opinion. – New York: Harcourt, Brace and Company, 1922. – P. 89.

³⁵Gudykunst W.B., Kim, Y.Y. Communicating with Strangers: An Approach to Intercultural Communication. – New York: McGraw-Hill, 2003. – P. 85.

shaxsning o‘ziga bo‘lgan hurmatining namoyishi sanaladi: *No, after all it was better to marry and keep your self-respect even if you never had any more fun* (Margaret Mitchell. *Gone with wind*. – P. 339). Boshqalarni ko‘pchilik oldida hurmatsizlantirish salbiy holat hisoblanadi. Shu sabab, omma oldida hurmat ko‘rsatish ahamiyatli hisoblanadi: *“Scarlett, promise me you won’t say things like that. People would talk so. They’d say you didn’t have the proper respect for poor Charlie–”* (Margaret Mitchell. *Gone with wind*. – P. 313).

Ammo, ingliz madaniyatida ijtimoiy muhitda xushmuomala va rasmiylik muhim o‘ringa ega bo‘lsa, o‘zbek madaniyatida, ayniqsa, oilaviy aloqalarda, samimiylik va yaqinlik ko‘proq qadrlanadi. O‘zbeklarda mehmonni “boshidan oxirigacha” qabul qilish, unga butun diqqatni qarata olish va uni o‘z oilasining bir qismi sifatida his qilishi uchun barcha imkoniyatlarni yaratish o‘zbek mehmondo‘stligining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Ingliz madaniyati va o‘zbek madaniyati o‘rtasida odob va axloq ifodasi o‘xshash bo‘lsa-da, ijtimoiy kontekstda farqlar mavjud bo‘lib, o‘zbek madaniyatida samimiylik va oilaviy aloqalar, ingliz madaniyatida esa rasmiylik va xushmuomalalik muhim o‘rin tutadi.

Bobning so‘ngi fasli **“Paremiologik birikmalarda odob-axloq leksikasi tasnifi”** deb nomlanib, paremiologik birliklar xalqning hayotiy tajribasini, donishmandligini va madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi til birliklar sifatida chog‘ishtirma tahlil qilindi. Maqollar, matallar, idiomalar va boshqa qisqa, lekin ma‘nodor iboralar odob-axloq leksikasining shakllanishiga asos bo‘ladi. Bu birliklar ijtimoiy guruhlar orasidagi kommunikatsiyaning asosiy vositasi sifatida, madaniyatlar va millatlarning odob-axloq qadriyatlarini aks ettiradi³⁶. O‘zbek olimi Sh. Rasulov o‘zining “O‘zbek tilidagi frazeologik birliklar” asarida, odob-axloq leksikasini, xalqning ijtimoiy va axloqiy qadriyatlari bilan chambarchas bog‘liq ekanligini ta’kidlagan. U odob-axloq leksikasining axloqiy fazilatlar va salbiy xulq-atvorlar bilan bog‘liq bo‘lgan frazeologik birliklar orqali milliy ruhni ifodalashni muhim deb biladi.

Ingliz va o‘zbek tillarida odob-axloq leksikasining tarbiyaviy roli, madaniy qadriyatlari va axloqiy tamoyillarini saqlashda muhim ahamiyatga ega. Odob-axloq birliklari yosh avlodni tarbiyalash, jamiyatda ijtimoiy uyg‘unlikni mustahkamlash va milliy o‘zlikni saqlashda beqiyos o‘rin tutadi. O‘zbek madaniyatida suhbatdoshning mavqeiga qarab maxsus murojaatlar qo‘llaniladi. Yaqin kishilar bilan muloqotda: *Ota* (“bobo”), *Ona* (“ona”), *dada* (“dada”), *Aka* (“katta”), *Opa* (“katta opa”), *Uka* (“aka, opa”), *Buvi* (“buvi”), *Bobo* (“bobo”), *Tog‘a* (“amaki”), *Amaki* (“ota tomonidan amaki”), *Xola* (“onaning opa yoki singlisi”) va *Amma* (“otaning opa yoki singlisi”) kabi leksemalar muloqotda qo‘llaniladi³⁷. Masalan: *Nima qilaman bo‘lmasa, [bolani] Anzirat xolaga tashlab qo‘yish ham insofdan emas. Men u kishidan juda xijolatda.* (A.Qaxxor. *Qo‘shchinor*); *Yaslilarimi o‘zini o‘zi eplay olmaydigan kampirlar qo‘lida, bo‘chamiz esa ... xayriyat, Huriniso opamiz insofga kelib, ishni o‘z qo‘llariga olibdi.* (A.Qaxxor. *Sinchalak*. – B. 130); *-Bizni kechirasiz, Bek aka! - deb uzr aytdi. - Vaqtsiz kelib sizni tinchsizladik.* (A.Qodiriy. *O‘tkan kunlar*).

³⁶Rasulov Sh. O‘zbek tilidagi frazeologik birliklar. – Toshkent: Fan, 2003. – B. 45.

³⁷Zaynalov A. N., Nesterova D. S. Til va madaniyat: o‘zaro aloqadorlik masalalari. – Toshkent: Fan, 2003. – P. 102.

Notanish odamlar bilan muloqot jarayonida bir xil ma'noga ega leksemalardan foydalaniladi, lekin ular metonimik shaklni oladi: *Ota* ("keksa bobosi"), *Opa* ("yosh qiz, o'rta yoshli ayol"), *Uka* ("yoshi kichik"). O'zbek tilida ham tanish, ham notanish suhbatdosh nomiga qo'shilishi mumkin bo'lgan aka-opa affikslari mavjud. Ammo ushbu affikslar rasmiy vaziyatlarga mos emas, ular faqat norasmiy muloqotlarda va norasmiy munosabatlarda qo'llaniladi: *Partiya majlisida opajoningiz ham yo'q, akajoningiz ham! Bu kishi o'rtoq Aliyeva! – dedi Ismoiljon. (A.Qaxxor. Sinchalak. – B. 44).*

Shuningdek, o'zbek tili muloqot ishtirokchilarining nutq odob-axloqi jarayoniga yuqori darajada jalb etilishini namoyish etadi, bu esa hayotning dastlabki yillaridanoq suhbatdoshlarga hurmat munosabatini shakllantiradi.

Ingliz millatida odob-axloq (etiquette) tushunchasining ahamiyatini aniqroq tushunish uchun uni real hayotiy misollar yordamida tahlil qilish mumkin. Odob-axloq qoidalari shaxslararo muloqot jarayonini ijobiy tarzda tashkillashtirishga xizmat qiladi. Masalan, "hello", "please", "excuse me", "sorry" va "thank you" so'zlaridan foydalanish kundalik muloqotning ajralmas qismi bo'lib, odobli bo'lish va minnatdorlik bildiruvchi me'yor sifatida tan olinadi. Shuningdek, salomlashish jarayoni suxbatni boshlashda muhim sanalanadi: "Hello!" she shouted, summoning all her strength. "Hello!" (Margaret Mitchell. *Gone with wind. – P. 761*); *Small Carreen could have cried because, for all Scarlett's encouraging words that morning, Brent had done no more than say "Hello, Sis" and jerk her hair ribbon before turning his full attention to Scarlett! (Margaret Mitchell. Gone with wind. – P. 202); -"Hello", he said, smiling. "Finished yer exams? Got time fer a drink?" –"Yes, please," said Ron, but Harry cut him off. (J.K.Rowling. Harry Potter. – P. 212).*

Salomlashish nafaqat ijobiy munosabatlarni nazarda tutganligi sabab, e'tiborsiz yoki salbiy munosabatli kishilarning hech narsa bo'lmagandek salomlashishi g'alati tuyuladi: *How could a man say "Oh, hello," after being gone without explanation for two days?! (Margaret Mitchell. Gone with wind. – P. 1803).*

Kun davomida vaqt nazorati ostida turli salomlashish leksemalaridan foydalanib, bu leksemalar yordamida vaqtni izohlaydi: "good morning", "good afternoon", "good evening" so'zlari ishlatilishi mumkin. Bu ko'pincha yoshi katta kishilarga nisbatan yoki rasmiy nutqda ishlatiladi: "Good afternoon", said a soft voice. Harry jumped. Hagrid must have jumped, too, because there was a loud crunching noise and he got quickly off the spindly chair. (J.K.Rowling. *Harry Potter. – P. 64*); "Good evening to you, Hagrid", said Ronan. He had a deep, sorrowful voice. "Were you going to shoot me?" (J.K.Rowling. *Harry Potter. – P. 202*); "Good evenin', young Misses. (Margaret Mitchell. *Gone with wind. – P.125*).

Ingliz madaniyatiga ko'ra salomlashilgach albatta: "I'm glad to see you!", "Nice to meet you" deyish odati bor: *How nice to see you again... (J.K.Rowling. Harry Potter. – P. 69); "Rubeus! Rubeus Hagrid! How nice to see you again*

Oak, sixteen inches, rather bendy, wasn't it?" (J.K.Rowling. Harry Potter. – P. 65).

Ingliz xalqlari madaniyatida shaxsiy hayot, oila, salomatlik, biznes, pul to'g'risida savol berish noan'anaviy bo'lib, bu ularning madaniyatiga zid bo'lgan o'ta qo'pollik sanaladi³⁸. Ingliz madaniyatiga ko'ra salomlashilgach faqat "How are you?", "How do you do?" tarzida hol-ahvol so'raladi xolos. Unga javoban "I'm fine, thank you", "Not bad", "So-so", "As usual!" iboralari yordamida javob beriladi: *How are you? Thanks for the letter (J.K.Rowling. Harry Potter. – P. 190); "How are they all over at Twelve Oaks?" "About as usual."* (Margaret Mitchell. *Gone with wind. – P.65*). "All the folks at Tara well?" "Oh, yes, so-so." (Margaret Mitchell. *Gone with wind. – P.1124*).

Har ikkala madaniyatda ham paremiologik birliklar odamlarning hayot tajribasini va dunyoqarashini umumlashtiradi. Misol uchun, o'zbek va ingliz tilidagi maqollar ko'pincha ijtimoiy qadriyatlarni, xulq-atvorni va axloqiy normalarni aks ettiradi. Ingliz va o'zbek tillarida ham paremiologik birliklar axloqiy me'yorlar, adolat, hurmat, mehnatsevarlik kabi ijtimoiy qadriyatlarni o'z ichiga oladi. Misol uchun, o'zbek tilidagi "Hammaga ham hurmat, lekin o'z o'rnini bilish kerak" va ingliz tilidagi "Respect is earned, not given" (Hurmat yutib olinadi, berilmaydi) iboralari o'xshash axloqiy g'oyalarni ifodalaydi.

XULOSA

1. Lingvokulturologik yondashuv til va madaniyatning o'zaro aloqasini o'rganadigan va tilning madaniy va milliy qadriyatlar, urf-odatlar bilan bog'liqligini tushunishga qaratilgan ilmiy yondashuvdir. Bu yondashuv til orqali insonning madaniy kodlarini aks ettirish, madaniyatlararo farqlarni va o'xshashliklarni aniqlash, hamda tilni madaniyatlararo kommunikatsiya vositasi sifatida tushunish imkonini beradi. Til va madaniyat o'rtasidagi o'zaro aloqani aniqlash, madaniyatlararo muloqotni samarali qilish uchun muhim nazariy va amaliy yondashuvlarni ishlab chiqishga yordam beradi.

2. O'zbek va ingliz tillarida odob va axloq kategoriyalarining madaniy kontekstdagi o'xshashlik va farqlari, ikki madaniyatning o'ziga xosligidan dalolat beradi. Ingliz madaniyatida individualizm va mustaqillikka urg'u berilgan bo'lsa, o'zbek madaniyatida kollektivizm va o'zaro yordamning ahamiyati kattadir. Shuning uchun, ingliz tilidagi odob-axloq kategoriyalari ko'pincha individning huquqlari va ijtimoiy tenglikni ta'kidlasa, o'zbek tilida bu kategoriyalar jamiyatdagi birligini va o'zaro hurmatni saqlashga qaratilgan.

3. Odob-axloqqa doir leksemalarning funksional-semantik sohasiga kiruvchi asosiy leksik ma'nolarni stilistik jihatdan neytral belgilangan, asosiy va qo'shimcha tarzda o'rganish ahamiyatlidir. Ushbu leksemalarning ishlatilishini kontekstual o'rganish yordamida ma'nolar kontseptual tuzilmada taqsimlanadi. Bunda ular asosiy, yaqin va uzoq periferiyaga ajratiladi. Shuningdek, o'zbek va ingliz odob-axloqqa doir leksemalarning lingvomadaniy an'alarining milliy jihatdan o'ziga xos xususiyatlarini ifodalovchi asosiy odob-axloq formulalarini tahlil qilish orqali ularning umumiy va farqli jihatlarini aniqlash mumkin. Odob-axloqqa doir leksemalarning ahamiyati ijobiy va salbiy assotsiatsiyalar yordamida,

³⁸Hall E.T. *Beyond Culture*. – New York: Doubleday, 1976. – P. 91.

ya'ni aksiologik nuqtai nazardan baholanadi. Nutq odobi va lingvistik formulalar o'zbek va ingliz millatining ijtimoiy, madaniy va siyosiy qadriyatlariga ta'siri nuqtai nazaridan talqin qilinishi maqsadga muvofiqdir.

4. Odob (Etiquette) Hurmat (Respect) va Xushmuomalalik (Politeness) bilan bog'langan, chunki ular ingliz madaniyatidagi to'g'ri xulq-atvorning ajralmas tarkibiy qismlari hisoblanadi. Hurmat (Respect) Adolat (Justice)ga ta'sir qiladi va kengroq ijtimoiy tuzilmaning bir qismidir. Adolat (Justice) Halollik (Honesty) bilan bog'langan, chunki adolatli jamiyatda tenglik va rostgo'ylik bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir. Halollik (Honesty) Insof (Fairness) bilan yanada bog'langan bo'lib, bu ma'naviy poklikni ifodalaydi. Xushmuomalalik (Politeness) Mehmondo'stlik (Hospitality) bilan ajralmas bog'langan, chunki boshqalarni kutib olishda xushmuomalalik zarurdir. Insof (Fairness) shuningdek, Adolat (Justice)ga bog'liq bo'lib, bu adolatning axloqiy asoslarini ta'kidlaydi. Ushbu xarita bu qadriyatlarning qanday o'zaro bog'liqligini va ingliz tilida so'zlashuvchi madaniyatlarda ijtimoiy tizimni shakllantirishdagi muhim rolini ko'rsatadi.

5. Ushbu tadqiqot, ikki tilda odob-axloq kategoriyalarining taqqoslanishini chuqur o'rganish orqali, madaniyatlararo kommunikatsiyada yirik farqlar va o'xshashliklarni aniqladi. O'zbek va ingliz tillaridagi odob va axloq tushunchalari nafaqat ijtimoiy axloqiy me'yorlar bilan chambarchas bog'liq, balki tilning o'ziga xos madaniy qatlamlarini ham aks ettiradi. Shuning uchun, madaniyatlararo o'zaro tushunishni yaxshilashda, bu kategoriyalarni chuqurroq tahlil qilish muhim ahamiyatga ega.

6. Ingliz va o'zbek tillaridagi odob-axloq kategoriyalarining taqqoslanishi, har ikki madaniyatda bu tushunchalarning lingvistik ifodasi va madaniy konteksti farqli ekanligini ko'rsatadi. Til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlik, tilshunoslik, kognitiv lingvistika va lingvokulturologiyaning metodologik yondashuvlari orqali yanada kengroq tahlil qilinishi kerak. Bu esa, tilshunoslar va madaniyatshunoslarga madaniy kompetensiyani rivojlantirishda, tilni o'rgatishda va madaniyatlararo kommunikatsiyada ahamiyatli ko'mak beradi.

7. Ushbu tadqiqot, milliy va xalqaro kommunikatsiyaning rivojlanishiga, madaniyatlararo aloqalarning chuqurlashishiga va global miqyosda muvaffaqiyatli ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarni amalga oshirishga katta hissa qo'shadi. Lingvokulturologik tadqiqotlar, dunyo bo'ylab muloqot va hamkorlikni yaxshilashda zarur bo'lgan ilmiy asoslarni yaratadi.

8. Madaniy kompetensiyani oshirish bugungi globallashgan dunyoda muhim ahamiyatga ega. Ta'lim, amaliy mashg'ulotlar, texnologiya, sayohat va boshqa madaniyatlarga qiziqishni oshirish orqali bu ko'nikmalarni rivojlantirish mumkin. Bu nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki jamiyatda hamjihatlik va barqarorlikni ta'minlashda ham muhim rol o'ynaydi. Shu sababli, madaniy kompetensiyani oshirish yo'lidagi sa'y-harakatlarni davom ettirish zarur.

9. Ingliz va o'zbek tillaridagi odob-axloq maqollari va idiomalar xalqning madaniy me'yorlari va stereotiplarini chuqur ifoda etadi. Bu birliklarning tahlili xalqaro madaniy aloqalarni mustahkamlash, turli xalqlarni bir-biriga yaqinlashtirish va til o'rganishni rag'batlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Kelajak avlod uchun bu boy madaniy merosni saqlab qolish va rivojlantirish vazifasi dolzarbdir.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ
PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

ОЧИЛБОВА ИРОДА АЛИШЕРОВНА

**КОГНИТИВНО-ЛИНГВОКУЛЬТУРОЛОГИЧЕСКИЙ
АНАЛИЗ ЛЕКСЕМ, ОТНОСЯЩИХСЯ К ЭТИКЕТУ
(НА ПРИМЕРЕ АНГЛИЙСКОГО И УЗБЕКСКОГО ЯЗЫКОВ)**

10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и переводоведение

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Тема диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан рег. № B2023.2.PhD/Fil3546.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трех языках (узбекском, русском, английском (резюме)) размещён на веб-странице Научного совета по адресу www.samdchti.uz и Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» по адресу www.ziynet.uz.

Научный руководитель: **Облокулова Мастура Мизробовна**
доктор философии (PhD) по филологическим наукам,
профессор

Официальные оппоненты: **Шамахмудова Азиза Фуркатовна**
доктор филологических наук (DSc), профессор
Джалгасов Нуржан Маратович
доктор философии (PhD) по филологическим наукам,
доцент

Ведущая организация: **Каршинский Государственный Университет**

Защита диссертации состоится «14» марта 2026 года в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/2025.27.12.Fil.37.02 при Самаркандском государственном институте иностранных языков. (Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел.: (99866) 238-29-37; факс: (99866) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.ru).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (зарегистрирована за номером 627 99). (Адрес: 140117, г. Самарканд, улица Гагарина, 43. Тел.: (99866) 238-29-37;

Автореферат диссертации разослан «25» февраля 2026 года.
(Протокол реестра рассылки за № 8 от «25» февраля 2026 года)



Н.З. Насруллаева
Председатель Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

У.У. Кулдошов
Учёный секретарь Научного совета по присуждению учёных степеней, доктор философии (PhD) по филологическим наукам, доцент

Д.А. Киселёв
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению учёных степеней, доктор филологических наук (DSc), профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В мировой лингвистической науке в условиях глобализации исследование межкультурных отношений, а также их лингвокультурной и когнитивной сущности, служит основой для преподавания языка, этикета и нравственности, а также для совершенствования культуры межкультурного общения. Научные исследования, создавая возможность выявления общих и специфических черт межъязыковых культур и углубленного изучения их особенностей, показывают актуальность культурных различий и сходств народов через понимание среды взаимодействия, а также того, что язык, этикет и моральные нормы являются неотъемлемой частью мировой культуры. Когнитивный и лингвокультурологический анализ лексем, связанных с манерами и этикой, способствует совершенствованию процесса преподавания иностранного языка и научно обосновывает тот факт, что язык является средством выражения культурно-нравственных ценностей.

В мировом языкознании в процессе изучения лексем, связанных с этикетом и моралью, с лингвистической и культурной точек зрения возникает необходимость анализа национальной специфики речи в различных культурных контекстах и ситуациях. Целью работы является анализ семантического значения этикетных лексем в контексте с помощью контекстуального, концептуального, коммуникативного, лингвокультурологического, аналитико-синтетического и сопоставительного методов.

В процессе анализа определённого лексического пласта языка определены принципы коммуникации концепта «этикет», степень его соответствия правилам этикета, функционально-семантические значения неискренних коммуникативных стратегий. Также, анализ человеческих отношений с помощью языковых средств, выявляющих ценности, присущие английской и узбекской лингвокультурам, рассматривается как одна из важных проблем современной лингвистики.

В целях интеграции Нового Узбекистана в мировое сообщество уделяется большое внимание изучению иностранных языков, проведению важных реформ в области перевода литературных произведений. Более того, лексемы этики представленные в художественных произведениях, расширяют человеческое сознание, знакомят читателя с определённой исторической эпохой, образом жизни конкретного языкового сообщества, его человеческими ценностями и национальными стереотипами. «Еще один важный вопрос, который всегда приходит нам на ум, связан с манерами, поведения и, одним словом, мировоззрением нашей молодежи»³⁹. Анализ лексем этики и нравственности в призме новых направлений языкознания, раскрытие их специфики в английском и узбекском художественном тексте

³⁹O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Toshkentda bo‘lib o‘tgan “Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi” mavzuidagi anjumandagi nutqi // UzA, 2017-yil, 15-iyun. daryo.uz.

имеют важное и актуальное значение для определения лингвокультурных особенностей языка в описании общения между людьми.

Данное исследование в определённой степени служит реализации задач, установленных Указом Президента Республики Узбекистан № УП-5847 от 8 октября 2019 года «Об утверждении концепции развития системы высшего образования в Республике Узбекистан до 2030 года», № УП-5850 от 21 октября 2019 года «О мерах по кардинальному повышению роли и авторитета узбекского языка в качестве государственного языка», Указом Президента Республики Узбекистан № УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», Постановлением Президента Республики Узбекистан № ПП-4038 от 28 ноября 2018 года «Об утверждении концепции дальнейшего развития национальной культуры в Республике Узбекистан», № ПП-4320 от 14 мая 2019 года «О мерах по дальнейшему развитию искусства бахши», а также Постановление Президента №ПП-152 от 29 апреля 2025 года “О реализации проекта по повышению качества и эффективности образования” и другими нормативно-правовыми актами, относящимися к данной сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование выполнено в соответствии с приоритетным направлением развития науки и технологий республики I. «Формирование системы инновационных идей и пути их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовно-просветительском развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Когнитивные и лингвокультурные особенности лексем этики и нравственности в английском и узбекском языках, проблемы проявления лингвистических и экстралингвистических факторов, формирующих их идейное содержание в текстах, исследовались как отечественными, так и зарубежными учёными. В частности, исследования по данной проблематике проводили русские лингвисты Е.М.Верещагин, В.Гумбольдт, В.И.Карасик, В.Г.Костомаров, Т.В.Ларина, С.Г.Терминасова⁴⁰, а также зарубежные исследователи Б.Брехмер, Ш.Даулай, Ч.Ф.Ононье, А.Пенникук, М.Роланд, Э.Рудольф, Р.Сусанти.⁴¹ Среди

Верещагин Е.М., Костомаров В.Г. Язык и культура. – Москва: Наука, 1993. – С. 53.; Гумбольдт В. Язык и философия культуры. – Москва: Прогресс, 1985. – С. 148.; Карасик В.И. Культурные доминанты в языке // Языковая личность, культурные концепты. – Волгоград, 1996. – С. 3-16.; Ларина Т.В. Категория вежливости и стиль коммуникации: Сопоставление английских и русских лингвокультурных традиций. – Москва, 2012. – С. 189.; Терминасова С.Г. Язык и межкультурная коммуникация. – Москва: Слова, 2000. – С. 203.; Терминасова С.Г. Клевета как речевой жанр в русскоязычной лингвокультуре: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Казань, 2012. – С. 18.

